

Norboyev Sardor Qavmiddinovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
Tel: +998905131403

Elektron pochta: sardornorboyev1403@gmail.com

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY PARTIYALAR ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy partiyalarning davlat siyosiy hayotidagi ahamiyati va ularning faoliyatini takomillashtirish masalalari haqida taklif va xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Demokratiya, siyosiy partiya, fraksiya, taraqqiyot strategiyasi.

Аннотация: В данной статье представлены предложения и выводы о значении политических партий в политической жизни государства и вопросах совершенствования их деятельности.

Ключевые слова: Демократия, политическая партия, фракция, стратегия развития.

Annotation: This article presents proposals and conclusions about the importance of political parties in the political life of the state and issues of improving their activities.

Key words: Democracy, political party, faction, development strategy

Dunyoda siyosiy partiyalarning faoliyati jadal rivojlanayotgan bir paytda, ularning davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtiroki ham kundan kunga kuchayib bormoqda. Xususan buni vakillik organlaridagi ishtiroki va saylovlardagi asosiy vazifani bajarishi bilan izohlanadi. Demokratik davlatlarda bu jarayon tabiiy holat hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa demokratik islohotlarning tub mohiyati ham parlamentni modernizatsiya qilish, uning faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bilan yanada hamnafas ishlar olib borishga taqaladi.

Tabiiyki, zamon bilan hamnafas yashashga intiladigan xalqimiz uchun ijtimoiy hayotni raqamlashtirish, innovatsion g'oyalar asosida yangi strategiyani ishlab chiqish ham davlat hokimiyati asosiy bo'g'ini bo'lmish parlamentga borib taqaladi. Bu boradagi ishlarni jadallashtirish boisi bilan ham demokratik institutlar mustahkamlanib bormoqda. Bu shubhasiz, siyosiy partiya bilan izohlanadi. Siyosiy plyuralizm, ko'ppartiyaviylik, so'z erkinligi va boshqa muhim huquqiy bo'g'inlar yanada mustahkamlanmoqda.

Biroq, tanganing ikkinchi tomoni bor deganlaridek, bu borada muammolar ham yetarlicha topiladi. Ya'ni siyosiy partiyalar parlamentni shakllantirishida, saylovlar jarayonida va siyosiy hayotda ishtiroki borasida muammolar ham yuzaga kelmoqda va ularni hal qilish har doimgiday dolzabligini saqlab turibdi.

Demak, parlamentdagi ishtiroki, vakillik organlarida ishtiroki bo'yicha, u yerdagi siyosiy partiyalarni faoliyatini tashkil etish bo'yicha muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda ularning vakillik organlaridagi faoliyati ko'z oldimizga keladi.

Xususan, ayni vaqtda siyosiy partiyalarning oliy vakillik organida partiya fraksiyalarining qonun ijodkorligi sohasidagi faolligi ko'ngildagidek emas. Zero, o'tkazilayotgan ijtimoiy so'rovnomalarda ham siyosiy partiyalarni bu boradagi harakatlari talab darajasida emas va bir qancha huquqiy soha olimlarining diqqat markazida turibdi. Shu sababli ham ularning bu borada faolligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi yangi, zamonaviy huquqiy mexanizmni qonunchiligimizga joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Demak, siyosiy partiyalarning parlamentdagi ishtiroki, vakillik organlaridagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sohani yanada modernizatsiya qilish bo'yicha A. Saytbekov¹, La Plombara, M.Vayner² kabi ko'plab tadqiqotchi olimlar siyosiy partiyalarning oliy vakillik organlaridagi ishtirokini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borgan.

Demokratiya qayerdan boshlanadi?. Demokratiya – parlamentdan boshlanadi. “Parlament – demokratiya maktabidir”. Shunday ekan, milliy parlamentimizni demokratiya maktabida aylantirishimiz zarur va buning uchun esa siyosiy partiyalarning o'rni bo'lakcha hisoblanadi.

Bundan tashqari, rivojlangan davlatlar: Germaniya va Finlandiya davlatlari tajribasiga qaraydigan bo'lsak, siyosiy partiyalarning oliy vakillik organlarida ishtirokini modernizatsiyasini ko'rish mumkin. Buni tajribani mamlakatimizga olib kirishimiz darkor. Siyosiy partiyalarni parlament doirasidagi bahs munozalarini ommaviy axborot vositalariga va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam namoyish etib borish. Bu borada O'zbekistonda muammo bor.

Masalan, Germaniyada Bundestagda fraksiyalar va partiya guruhlarini doimiy ravishda parlament faoliyatiga doir masalalarni keng jamoatchilik vakillariga, xalqqa yetkazib turadi.

Finlandiyada esa, partiya fraksiyalarining seminar-treninglari, qonun loyihasi muhokamalari jarayonida ishtiroki, televideniya va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda doimiy tarzda yoritilib boriladi va hattoki sharhlovchilar tomonidan tahlil etib boriladi.

Keyingi muammoli holatlardan biri bu, tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, “siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlarining qonunchilik tashabbuskorligi bo'yicha faoliyati doirasi ham zamon talablariga mos emas. Misol uchun, 2015-2017-yillarda parlamentimiz tomonidan 60 ga yaqin qonun qabul qilingan bo'lsada, partiya fraksiyalarining tashabbusi bilan qabul qilingan bitta ham qonun yo'q”³. Bu achinarli muammoli holatlardan biri.

“Shu bilan birga, bugungi islohotlar jarayoni fraksiyalar faoliyatining samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qator masalalarga ham e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. Jumladan, fraksiyalar o'z partiyasi elektorati manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonun loyihalari bo'yicha tashabbuskorligi yetarli darajada emas. Misol uchun, 2021-yilning birinchi yarim yilligida Qonunchilik palatasiga kiritilgan jami 69 ta qonun loyihasining bor-yo'g'i 8,6 foizi fraksiyalar tashabbusiga to'g'ri keladi xolos”⁴.

¹ Сайтбеков Айдар Муталикович. Цели и основнке направления модернизации // Символ науки. 2016. №3-4.

² La Plombara., Weiner M. Political parties and political development. (SPD-6). – Princeton University Press, 2015.

³ Bekov I. R. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yuridik fanlar bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi. – T., 2021. – 223-b.

⁴ Ismoilov N. Milliy parlamentarizmning taraqqiyot odimlari.: “Xalq so'zi” gazetasi. 04. 09. 2021.

Ushbu sohadagi yana bir takomillashtirish masalalaridan biri – saylov tizimidir. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi deputatlari va mahalliy kengashlarda saylovlarni o‘tkazish mojaritar-proporsional shaklda ya’ni aralash shaklda o‘tkazish Prezidentimiz tomonidan taklif qilindi. Bu bo‘yicha tegishli hujjat ham bor. Bu “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni hisoblanadi. Ushbu farmonning 8-bandiga ko‘ra: “Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimini joriy etish haqidagi takliflari ma’qullanishi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bir oy muddatda majoritar-proporsional shaklga asoslangan saylov tizimiga o‘tishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqilishi”⁵ tavsiya qilingan. Bu partiyalarni kuchayishga majbur qiladi va barqaror hukumat tuzish imkonini beradi.

Shuningdek, siyosiy partiyalarning vakillik organlarida ishtirokini mahalliy darajada oladigan bo‘lsak, ularning mahalliy kengashlarda ishtirokini nazarda tutadi. Bu borada O. Bobojonov o‘zining ilmiy ishida siyosiy partiyalarning mahalliy kengashlarda ya’ni Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlarida ishtiroki va faoliyatini yoritib bergan.

Xususan, O. Bobojonov mazkur holatga shunday ta’rifni taklif etadi:

“Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida siyosiy partiyalar ishtiroki deganda ularning partiya guruhleri orqali mazkur organlarda partiya va saylovchilar manfaatini ifodalash maqsadida muayyan qo‘mita yoki komissiyalarni shakllantirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarini vazifasiga tayinlash va ozod etish bo‘yicha takliflar kiritish, ijro hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga so‘rov bilan murojaat qilish va ularning hisobotlarini eshitish, hududlarni rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yuzasidan takliflar kiritishga qaratilgan faoliyati tushuniladi”⁶.

Mahalliy kengashlarda siyosiy partiyalarning faoliyatidagi muammolardan biri bu – xalq deputatlari Kengashlari tomonidan viloyat, tuman, shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishda va shuningdek, Kengash qarorlari loyihalarini tayyorlashda siyosiy partiya guruhlarining faolligi juda past. Buni takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqish lozim.

Yana bir tadqiqotchi olimlardan biri Sh. Yakubov ham davlatning siyosiy partiyalar bilan hamkorligini takomillashtirish zaruratini keltirib, “partiyalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat, bahs va munozaralar jamiyat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, partiyalarning kuchli bo‘lishi davlatning kuchayishiga xizmat qiladi. Buning uchun davlat tomonidan siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvida erkin faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar, huquqiy asoslar hamda teng huquqiy imkoniyatlar yaratilishi, shuningdek, ular moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi lozim”⁷, - degan xulosaga ham kelgandi.

⁵ PF-67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6461609>

⁶ Bobojonov O. D. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari / Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 5-b.

⁷ Yakubov. Sh. U. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish: Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. - B.17

Siyosiy partiyalarning saylov jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan va ko‘pchilik tomonidan iliq kutib olinmaydigan muammoli holatlaridan biri bu – saylovoldi tashviqot-targ‘ibot ishlarida saylovdan oldin bergan vadalarini deyarli bajarmasligi bu judayam ayanchli muammolardan biri sanaladi.

Xususan, bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham siyosiy partiya vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvda so‘z yuritgan.

Davlat rahbari shuni qayd etdiki: “zamon siyosiy partiyalarning vakillari, deputat va senatorlardan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishni, boshqalarga namuna ko‘rsatishni talab etmoqda.

Demokratiya parlamentdan boshlanadi. Parlament demokratiya maktabidir. Shunday ekan, milliy parlamentni haqiqiy demokratiya maktabiga aylantirishimiz kerak. Bu o‘rinda siz, hurmatli deputatlar va senatorlar boshqalarga ibrat bo‘lishingiz zarur. Chinakam bahs, munozara, prinsipial tortishuv avvalo shu yerda, parlament minbarida bo‘lishi kerak. Shundagina har bir siyosiy partiya, parlamentdagi har bir partiya fraksiyasining haqiqiy qiyofasi va pozitsiyasi aniq bo‘ladi... Agar biz siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi faoliyatini kuchaytirmasak, qonun ijodkorligi va qabul qilingan qonunlar ijrosida kutilgan natija bo‘lmaydi”⁸.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning faoliyatini takomillashtirish bevosita ularning huquqiy bazasini ixcham holda, “yagona yo‘l xatirasi” kabi tushunchalarga mos bo‘lgan konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlash bilan bog‘liqdir. Mamlakatimiz demokratik taraqqiyot yo‘lidan borishi uchun shubhasiz, siyosiy partiyalarning faoliyatini yanada modernizatsiyalashga e‘tibor qaratadi. Va aynan shu sabab ham Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot Strategiyasi”da belgilangan maqsadlarning yettinchisi siyosiy partiyalarning faoliyatini, uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oiddir. Unga ko‘ra:

“Barcha sohalarida vaziyatni har tomonlama o‘rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta’sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyotda so‘zsiz va to‘liq ijro etilishini ta’minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish”⁹ masalasi belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сайтбеков Айдар Муталикович. Цели и основнке направления модернизации // Символ науки. 2016. №3-4.
2. La Plombara., Weiner M. Political parties and political development. (SPD-6). – Princeton University Press, 2015.
3. Bekov I. R. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yuridik fanlar bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi. – T., 2021. – 223-b.
4. Ismoilov N. Milliy parlamentarizmning taraqqiyot odimlari.: “Xalq so‘zi” gazetasi. 04. 09. 2021.

⁸ Sh. Mirziyoyevning senatorlar, deputatlar, va siyosiy partiya vakillari bilan uchrashuvi. 2017-yil 12-iyul. // <https://kun.uz/uz/85077446?q=%2Fuz%2F85077446>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>

5. PF-67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6461609>
6. Bobojonov O. D. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari / Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 5-b.
7. Yakubov. Sh. U. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish: Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. - B.17
8. Sh. Mirziyoyevning senatorlar, deputatlar, va siyosiy partiya vakillari bilan uchrashuvi. 2017-yil 12-iyul. // <https://kun.uz/uz/85077446?q=%2Fuz%2F85077446>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>